



HOZIRGI KUNDA O'QUVCHI YOSHLARNI TARBIYALASHDA OILANING AHAMIYATI

SHARIPOVA MARHABO ODILOVNA

ABDUVOHIDOVA DILFUZA MASHRABOVNA

Andijon viloyati Baliqchi tumani Maktabgacha va Maktab

Ta'lim Bo'limiga Qarashli 37-sonli maktab psixologlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif farzand tarbiyasida ota-ona ro'li, uning mas'uliyati, farzandga o'rnak bo'lishi mexanizmi xaqida so'z yuritadi. Shu bilan birga farzand kamoli qanday oliy baxt ekanligini xam tushuntirib boradi.

Kalit so'zlar: Qobil farzand, oila baxti, odob, shirinso'zlik, axloq, saodat.

Inson ushbu hayoda yashar ekan doimo yaxshi Yashash, o'zidan yaxshi mom qoldirishni xoxlaydi. Ollox biz insoniyatni ongimiz, aql zakovatimiz sababli hayonot olamidan farqli etib yaratdi. Shunday ekan jamiyatni aqlli, tarbiyali, atrofga foydasi tegadigan insonlar bilan boyitish bu barchamizning vazifamizdir.

Har bir ota-ona farzandining baxti kelajagi ertangi kunini o'ylab hamisha yaxshi tilaklar, orzu intilishlar va maqsadlar bilan yashaydi. Shunday ekan oilada farzandlarni ma'naviy-ma'rifiy, yuksak barkamol etib voyaga yetkazishda pedagogik-psixologik tarbiyaning ahamiyati, o'rni beqiyos.

Bola 14 yoshgacha ota-onadan quvvat oladi. Shu yoshgacha tanqid va aybdorlik hissini o'rniga mehr bergan bo'lsangiz bu albatta qaytadi. Inson o'zidan oshib-toshib ketgan narsanigina beminnat shunchaki bera oladi. Siz ham o'zingizdagi mehrni berayotgan bo'lsangiz bola ham shunday qiladi, sizni o'zingizga mehr yetmayotgan bo'lsa boladan



ijobiy xulq atvorni va mehrni kutmang, chunki unda bu yo'q. Agar bola qo'rquvda yashasa u bezovta bo'lib qoladi. Agar bolaning iqtidori tan olinsa, u o'zining oldiga maqsad qo'yishni o'rganadi. Agar bola achinaverilsa, u achinishga o'rganadi. Agar bolaning xatti-harakatlari ma'qullansa u o'zini yaxshi ko'rishni o'rganadi. Agar bola rashk hissi bilan yashasa, u aybdorlik hissiga ega bo'ladi. Agar bolaga do'stona munosabatda bo'linsa, u dunyo yaxshi yashash uchun yaxshi maskan ekanligini anglaydi.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bu qatlamni o'rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzard ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keldi? Ular jamiyatning qanday qatlami? Hozirgi kunda yoshlarning 10 millionnini uyushmagan yoshlar tashkil etadi, ular ayni vaqtda biror bir kasb-hunar yoki ta'limning ma'lum bir qismida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ham ega bo'lmagan, tayinli ish bilan mashg'ul bo'lmagan yoshlar tushuniladi.

Bizning jamiyatimizda bu qatnamning yosh guruhlar o'rtacha 19-24 hamda 26-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etyapti. Birinchi guruh asosan o'rta maxsus ta'limi bitiruvchilari bo'lib, ular kollej va akademik litseylarni tugatib, yo oliy ta'lim yurtlariga hujjat topshirishadi yoki o'z sohasi bo'yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib, uni davom ettirishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining faqat 10 foizigina birinchi yil oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiriyapti xolos. Qolgan yoshlar o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rishyapti, qolgan qismi esa haligacha tayinli ish topa olmay sarsonlikda yuribdi. Yoshlarning ayrimlari esa o'qishga kira olmay, ish topa olmay xorijiy davlatlarga ishlashga ketyapti. Xorijiy davlatdaham tayyor ish yo'qligi sababli u yerda ham sarsonlikda yurgan yoshlarimiz afsuski yo'q emas.

Endi esa yoshlar orasida bu ijtimoiy-psixologik muammolarning kelib chiqish sabablari haqida fikr yuritsak. Bunday holatga asosiy sabab, birinchi navbatda hali saviyasi past bo'lgan ota-onalarning hamda ularning farzandlariga berayotgan tarbiyasini



ko'rishimiz mumkin. Bazi odamlarimizda hali-hanuz saqlanib qolayotgan eskicha fikrlash va qoloq dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan bolalarga berib kelayotgan "o'qib nima qilasan undan ko'ra ishni qil, qorning shundan to'yadi o'qib dunyoni olib berasanmi" qabilidagi fikrlari yoki bo'lmasa, bolalarni yoshligidan o'qib, ilm olishga yo'naltirmay psixologik dalda bermay, "qora mehnat"ga jalb qilib, shu bhonada o'qishdan bolani chalg'itib, buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o'rgatolmay, lo'nda qilib aytganda "sixni ham kabobni ham kuydirishlari" masalaning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Oldimizda turgan muammolarni yechishda har bir ikir-chikir sabablarga nazar tashlash o'rinlidir. Bolaning yosh paytidagi o'tkir zehni, barcha narsani qabul qilishga qodir bo'lgan paytda, ularni durust kasb-hunar yoki o'qishga yo'naltirish o'rniga bolalarni ko'chada vaqtini bekor o'tkazishiga ruxsat bergan, har safar maktabga yo o'qishga ketayotganida kissasini pul bilan to'ldirib jo'natayotgan, hali endi shakllanish bosqichida turgan bolalarga mobil telefon, kompyuterlar olib berib, ularni nazoratsiz, o'z xoxishiga tashlab qo'ygan ota-onalar oramizda yo'q emas. Hech qaysi bola yoshligidan kitob o'qishni xohlab, ota-onasidan iltimos qilmaydi, ular bu paytda qiziqqon, o'yin kulguga o'ch bo'lishadi, lekin unga yoshligidan ota-onasi zarur tarbiyani berib, o'qishga hamda kasb-hunarga yo'naltirsa albatta undan kelajakda jamiyatga va oilasiga nafi tegadigan shaxs bo'lib ulg'ayadi. Lekin buning o'rniga bolaning yoshlikdan o'yin kulgu va o'tkinchi narsalar bilan band bo'lib, mobil telefon va kompyuterlar og'ishida o'sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki, yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo'lib ulg'ayishida katta o'rin tutadi.

Bu o'rinda Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini aytib o'tishni lozim topdim: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Shubhasiz oila haqiqiy hayot maktabi va tarbiya o'chog'idir.

Biz yosh avlodga ilm-fan hamda kasb-hunarni yoshligidan ongiga singdirib borishimiz kerakki, zero u ulg'ayganda buning foydasi hamda berilgan tarbiyaning to'g'riligini ongli



ravishta tushunib yetsin. Agar shunday qila olsak u o'qishni o'zi anglab yetadi, boshini kitobdan ko'tarmaydi, unga hech qanday kompyuter o'yinlari-yu mobil telefonlarning keragi bo'lmaydi. Uni o'qishga majburlab, nasihat qilish kerak bo'lmaydi. Bir qancha rivojlangan mamlakatlarda misol uchun Yaponiyada na shunday uzviy ta'lim va tarbiya birga olib boriladi. Yapon yoshlari o'qishni barcha narsadan ustun qo'yishadi. Yaponiyada barcha joylarda metrolarda, xiyobonlarda, ko'chalarda, xoh yirik shahar bo'lsin, xoh chekka qishloq hamma yerda bukshop va bukkafelar bor, yapon yoshlari barcha yerlarda o'tirib tinimsiz ilm olish payida bo'lishadi, ularni boshqa hech narsa qiziqitirmaydi.

Yapon maktablarida davomat 99,9% ni tashkil etadi, hech qaysi o'quvchi maktabda o'quv formasiz kelmaydi. Fan imtihonlarida tartib shunchalik yuqoriki, yapon o'quvchi talabalari bir-biridan ko'chirish bir-biriga yordam berish yoki har xil ko'z bo'yamachiliklarni xayollariga ham keltirishmaydi, barchalari, hammalari o'zlari uchun o'z kelajaklari uchun harakat qilishadi. Yaponiyada ta'limda milliy an'analar hamda yaponcha tarbiya ruhi ta'lim bilan omuxtalashib ketgan va hozirgi kunda dunyoning yetakchi mutaxassislari yaponiyadan yetishib chiqayotganligi, davlat yalpi ichki mahsulotining oshishi, eng muhimi jamiyatdagi ishsizlar sonining kamligi yapon ta'lim tizimining naqadar samarali ekanligini isbotlaydi. Men bu fikrlarim bilan kimnidir maqtash, kimnidir yerga urish maqsadidan yiroqman, lekin ibrat olsa bo'ladiganlardan ibrat olish kerakligini aytmoqchiman.

Barcha narsa hatto, jamiyatdagi ko'plab yechimini kutib turgan muammolarning asl sababi to'g'ri tarbiyaga borib taqalar ekan, shu o'rinda ota-onalar hamda jamiyatning uzviy bog'liqligini ta'minlash kerakligini aytmoqchiman, buning uchun biz ota-onalar bilan uchrashuvlar o'tkazishimiz lozim, ularning ma'naviyatini, psixologik madaniyatini oshirishimiz kerak, bunda albatta ta'lim muassasalarining o'rni katta. Shu o'rinda yana bir fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman, xalqimizda "Qars ikki qo'ldan chiqar" degan pur ma'no naql borki, ko'p o'rinlarda biz bu fikrni naqadar to'ri ekanligini tan olmay ilojimiz yo'q. Masalaning bir jihati borki, shu o'rinda shuni aytishni lozim topdim. Biz yuqorida



aytilgan muammolarning vujudga kelishida nafaqat ota-onalar, balki ta'lim tizimimizdagi ayrim yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabab bo'lyapti.

Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir. Farzand bu ota ona ko'zgusi hisoblanadi. Ota ona o'zidagi ijobiy va salbiy sifatlari bilan farzandlariga o'rnak bo'lib boradi. Ota ona tomonidan uqtirilgan Pand nasihatlar aqilli farzand uchun hayot davomida dasturi amal bo'lib hizmat qiladi. Shunday ekan avvalo inson o'z kamchiliklarini tuzatishi, xar bir vaziyatdan o'ziga kerakmi xulosa olishi lozim.

Shu o'rinda Mana shu satrlar qalbimga quyulib keldi:

Xalqda bordir bir naql,

Farzand it's ko'zgusi.

Farzandlar bo'lsa ahil,

Yurtda unib, o'sgusi...

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq"
2. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
3. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi". 2010-yil.
4. Nishonova Z, Alimova G "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013-yil.